

## TASHABBUSLI BYUDJET LOYIHASNINING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TAHLILI

**Xamidov Xabibullo Xikmatulla o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tadqiqotimiz davomida o‘rganilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Ochiq byudjet” axborot portali orqali joriy yilda o‘tkazilayotgan “Tashabbusli byudjet” jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari va g‘olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy hamda tahliliy ma’lumotlar, shuningdek, tashabbusli byudjetlashtirish tizimida galdagi yangi amalga oshirilishi kutilayotgan ishlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tashabbusli byudjet, Ochiq byudjet, axborot portali, davlat byudjeti, jamoatchilik fikri.

### **Аннотация**

В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет»

**Ключевые слова:** Инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

### **Abstract**

This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

**Keywords:** initiative budget, Open budget, Citizens’ budget, information portal, state budget, Citizens’ opinion.

### **KIRISH**

Tashabbusli byudjet tadbirlari nafaqat byudjetdan ajratilgan mablag‘larning bir qismini jamoatchilik fikriga asosan yo‘naltirish, balki tegishli tuman yoki shahar ma‘muriyati uchun kelgusida ushbu hududda qisqa muddatlarda amalga oshirilishi muhim bo‘lgan eng dolzarb masalalar ro‘yxatini shakllantirish orqali hududning o‘ziga xos va xalqchil ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga zamin yaratadi.

Moliyalashtirish — tashkilot va korxonalarni, turli iqtisodiy loyihalarni moliyaviy resurslar (pul mablag‘lari) bilan ta‘minlash jarayonidir. U tashkilot va korxonalarining

o‘z mablag‘lari hisobidan, shuningdek, davlat manbalari, barcha darajadagi byudjetlar, kredit mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning badallari hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Agar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni moliyalashtirish davlat tomonidan amalga oshirilsa, bu ularning joriy faoliyatini bajarish uchun turli shakllardagi mablag‘larni tekin va qaytarilmas asosda ta‘minlashni nazarda tutadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel PQ–5072-son “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga<sup>1</sup> muvofiq, tuman va shahar byudjetlarining tegishli mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun tuman (shahar) hokimliklarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari shaklidagi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” g‘azna hisobvarag‘i (jamg‘arma) ochiladi.

Quyidagilar tashabbusli byudjet jarayonini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi: tuman (shahar) byudjetlarida tashabbusli byudjet jarayoni uchun rejalashtirilgan mablag‘lar. Bunda, har yili tuman va shaharlar byudjetida 10 tadan kam bo‘lmagan, ko‘pi bilan 30 ta loyiha uchun yetarli mablag‘lar rejalashtiriladi hamda 10 tadan ortiq loyihalar uchun mablag‘lar tuman yoki shahar aholisining tegishli hududdagi aholi sonidan kelib chiqib taqsimlanadi. Shuningdek, tuman (shahar) byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizi ushbu jarayon uchun yo‘naltiriladi.

Gianpaolo Baiocchi Braziliyaning Porto Alegre shahridagi tajribani o‘rganib, tashabbusli byudjetlashuv nafaqat resurslarni adolatli taqsimlash, balki fuqarolik faolligini oshirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash vositasi ekanini ilmiy asoslab berdi. Uning fikricha, Porto Alegre modeli ishtirokchilik demokratiyasining real shakllanishi va ijtimoiy nazorat tizimining samarali ishlashini ta‘minlagan.

Brian Wampler esa Braziliyaning boshqa hududlarida olib borgan tadqiqotlarida tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyati siyosiy iroda, davlat idoralarining ochiqligi hamda jamoatchilikning uzluksiz ishtirokiga bevosita bog‘liqligini aniqlagan. Wampler shuningdek, bu jarayon fuqarolar orasida “hisobdorlik madaniyati”ni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadi.

Yves Cabannes o‘z ishlarida tashabbusli byudjetlashtirishni amaliy jihatdan joriy etishda shaffoflik, inklyuzivlik, ijtimoiy adolat va monitoring tizimlarining uzviyligini muhim shart sifatida belgilaydi. U bu jarayonni “demokratiyaning amaliy laboratoriyasi” deb ataydi va u orqali fuqarolar moliyaviy qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etish imkoniga ega bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Ruth Abers esa Braziliya misolida fuqarolarning mahalliy boshqaruvdagi roli qanday shakllanishini o‘rganib, tashabbusli byudjet mexanizmlarining muvaffaqiyatida “institutsional xotira” va “jamoaviy o‘rganish” jarayonlarining

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-aprel PQ–5072-son “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-5370805>

ahamiyatini ajratib ko'rsatgan. Abersga ko'ra, fuqarolarning ishtirok etishi ularni faqat siyosiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham faol subyektlarga aylantiradi.

Ushbu olimlar tadqiqotlari birgalikda shuni ko'rsatadiki, tashabbusli byudjetlashtirishning samarali ishlashi uchun qat'iy huquqiy asos, shaffoflikni ta'minlovchi mexanizmlar, fuqarolarning malakasini oshirish dasturlari va mustahkam siyosiy iroda zarurdir. Bunday yondashuv demokratik boshqaruvni chuqurlashtiradi, mahalliy darajada mas'uliyatni oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda ma'lumotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya vazirligi huzuridagi "Ochiq byudjet" portali hamda mahalliy byudjet ijrosi bo'yicha statistik hisobotlardan olindi. Olingan ma'lumotlar tahlili qiyosiy va dinamik usullarda, shuningdek, korrelyatsion va tarkibiy tahlil usullari orqali amalga oshirilib, tashabbusli byudjet loyihalarining moliyalashtirish manbalari o'rganildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mavjud aholi soni hamda mahallalar sonidan kelib chiqib, har chorak (yil) yakunlari bo'yicha shakllangan qo'shimcha mablag'larning 30 foiz qismini teng taqsimlangan holda tuman (shahar) jamg'armalariga yo'naltirish bo'yicha takliflarni tasdiqlash uchun tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga kiritadi.

Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlar viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahri shahar byudjetidan tumanlar hamda shaharlar byudjetlarida har chorak (yil) yakunlari bo'yicha shakllangan qo'shimcha mablag'larni taqsimlash masalasi chorak (yil) yakunlariga ko'ra, keyingi oyning 25-sanasiga qadar tegishli xalq deputatlari mahalliy kengashlarida muhokama qilinadi.

Ma'lumot uchun, tashabbusli byudjet jarayoni uchun normativ-huquqiy hujjat asosida qo'shimcha mablag'lar ajratilganda — bir hafta muddatda (agar hujjatda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) qo'shimcha tarzda g'olib deb e'lon qilingan loyihalar uchun ochilgan hisob raqamlariga mablag' o'tkaziladi.

Agar mahalliy byudjetlarning qo'shimcha mablag'lari hisobidan jamg'armaga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lar tegishli chorak (yil) davomida o'tkazilmasa, kelgusi chorak (yil) yakunlari bo'yicha shakllangan qo'shimcha mablag'lar hisobidan qoplab berilishi shart.

Jamg'arma mablag'lari faqat g'olib loyihalar mazmunida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish hamda shu bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish (loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish va boshqalar) xarajatlari uchun yo'naltiriladi. Mazkur mablag'larni boshqa maqsadlarga yo'naltirish qat'iy taqiqlanadi.

G'olib loyihalarda nazarda tutilgan tadbirlar to'liq amalga oshirilganidan so'ng, ushbu loyiha uchun ochilgan hisob raqamidagi qoldiq mablag'lar tejalgan mablag' hisoblanadi. Tejalgan mablag'lar hisobidan qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi va buyurtmachi tomonidan o'n ish kuni ichida ushbu mablag'lar

tegishli tuman (shahar) jamg'armasiga o'tkaziladi. Har oy (chorak) yakuni bo'yicha yakunlangan va foydalanishga topshirilgan loyihalar yuzasidan tejalgan mablag'lar (kafolat summasi bundan mustasno) avtomatik tarzda Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi orqali tegishli tuman (shahar) jamg'armasida tiklanadi.

Tadbirlarni amalga oshirish ishlari tegishli moliya yilida yakunlanmay qolsa yoki bajarilgan ishlar uchun mablag'lar pudratchilarga to'liq o'tkazilmasa, g'azna hisobvarag'idagi mablag'lar jamg'armaga o'tkazilmaydi va kelgusi yil davomida belgilangan tartibda pudratchilarga to'lab beriladi.

Agar yil yakunlariga ko'ra rasmiylashtirilgan shartnomaga muvofiq tadbirlar amalga oshirilmagan yoki qisman bajarilgan bo'lsa, shartnomada belgilangan tadbirlarni hamda to'lovlarni kelgusi yilda amalga oshirishni nazarda tutadigan qo'shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan g'olib loyihalarni moliyalashtirish tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari qarorlari asosida amalga oshiriladi. G'olib loyihalar e'lon qilingan kundan boshlab 7 kun ichida ushbu loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga qaror loyihasi kiritiladi.

Ochilgan shaxsiy g'azna hisobvarag'iga 3 ish kuni ichida tuman (shahar) hokimligi tomonidan g'olib deb topilgan loyihalar uchun manzilli ro'yxatda nazarda tutilgan mablag'lar o'tkaziladi. Agar loyihaning dastlabki qiymatiga nisbatan yakuniy qiymati yuqori bo'lsa, loyihani amalga oshirish uchun talab etiladigan qo'shimcha mablag' tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi qarori asosida jamg'armadagi mavjud yoki kelgusida tushadigan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

Jamg'arma hisobidan loyihaga ajratiladigan mablag' tegishli mavsum o'tkazilgan paytda amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining 4 ming barobaridan oshmasligi lozim. Agar loyiha qiymati ushbu miqdordan oshsa, qo'shimcha talab etiladigan mablag' tuman (shahar) mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi qaroriga asosan qoplab beriladi. G'olib deb topilgan loyihaning dastlabki qiymatidan kelib chiqib, tadbir doirasida amalga oshiriladigan ishlar (tovar va xizmatlar) hajmini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Sodda qilib aytganda, har bir tuman va shaharda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun belgilangan miqdordagi mablag'lar "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" deb nomlanuvchi alohida maxsus hisob raqamda to'planadi. Ushbu mablag'lar faqat g'olib bo'lgan takliflarni moliyalashtirish uchun sarflanadi.

Barcha tuman va shahar hokimliklari qoshida 26 ta raqamdan iborat bo'lgan, mablag'lar manbasi bo'yicha 4017, bo'lim va kichik bo'lim 7019–909 asosida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'i, eksperiment o'tkazilgan 14 ta tuman (shahar) hokimliklari qoshida esa mablag'lar manbasi bo'yicha 1000, bo'lim va kichik bo'lim 7019–909 asosida shaxsiy g'azna hisobvarag'i ochilgan.


Tarixga nazar solsak, tashabbusli byudjet jarayonlari 2019-yildan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. 2019 va 2020-yillarda tuman (shahar) byudjetlarining

qo‘shimcha manbalari, ya’ni chorak yakuni bo‘yicha daromaddan orttirib bajarilgan qismining kamida 10 foizi “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan moliyalashtirilib kelingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-son qaroriga asosan amaldagi tartib o‘zgartirildi. Endilikda tuman (shahar) byudjetlari qo‘shimcha manbalarining kamida 10 foizi emas, balki 30 foizi yo‘naltirilishi belgilandi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar) fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga, mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi belgilandi.

2022-yil 1-yanvardan boshlab respublikaning barcha tuman va shaharlarida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan edi. Hozirda esa tuman va shahar byudjetlarida 10 tadan kam bo‘lmagan, ko‘pi bilan 30 ta loyiha uchun yetarli mablag‘lar rejalashtiriladi. Shuningdek, 10 tadan ortiq loyihalar uchun mablag‘lar tuman yoki shahar aholisining tegishli hududdagi aholi sonidagi ulushidan kelib chiqib taqsimlanadi.

So‘nggi besh yilda “Tashabbusli byudjet” jarayonlarini moliyalashtirish hajmi 13 barobarga oshirilib, 530 mlrd so‘mdan 6,6 trln so‘mgacha yetkazildi (1-rasm).



**1-rasm. “Tashabbusli byudjet” jarayonlarini moliyalashtirish manbalari<sup>1</sup>**

Tashabbusli byudjet jarayonlari tuman va shaharlardagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishda fuqarolar uchun davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy ko‘prik vazifasini bajarib kelmoqda.

Mazkur jarayonlarga keng jamoatchilikni jalb qilish maqsadida mahallabay ishlar tashkil etilib, joylarda “ovoz berish yarmarkalari” o‘tkazildi. Bu orqali fuqarolarga

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, 2024-yil 30-yanvar KQ-666-IV-son <https://lex.uz/docs/-6790170>

portaldan foydalanish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilib, ularga ushbu jarayonlarning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berildi. Ushbu ishlarning davomi sifatida qabul qilingan qarorga ko'ra, endilikda har bir mahalla va ovulda "Ochiq byudjet" axborot portalida taklif qoldirish va ovoz berish jarayoniga ko'maklashuvchi "mobil guruhlar" hamda "tashabbuskorlar burchagi" tashkil etiladi. Bunda ko'zlangan asosiy maqsad — hududlarda fuqarolarning tizim bo'yicha xabardorligini oshirish, takliflarga ovoz berish jarayonlarini yanada faol, qizg'in va interaktiv tarzda o'tkazilishini ta'minlashdir.

Fuqarolik jamiyatini byudjet jarayonlariga jalb qilish, byudjet mablag'larini sarflashda ularning ishtirokini ta'minlash borasida bugungi kunga qadar amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar hamda sinov tariqasida tanlab olingan tuman va shaharlarda jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Jumladan, Moliya vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida jalb qilingan xalqaro ekspertlar ko'magida ishlab chiqilgan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, institutsional salohiyatni oshirish hamda tashabbusli byudjet jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashni ko'zda tutgan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Jahon tajribasiga asoslanib aytganda, tashabbusli byudjetlashtirish keng ma'noda nafaqat munitsipalitet (ya'ni o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa) byudjetining ma'lum qismini boshqarishni, balki ushbu munitsipalitet muammolarini hal etish uchun boshqa mavjud moliyaviy resurslarni ham samarali boshqarishni nazarda tutadi.

Bunday moliyaviy manbalar munitsipalitet byudjetiga qo'shimcha ravishda quyidagi yo'nalishlardan ta'minlanadi:

1. *Milliy yoki hududiy (mahalliy) byudjet mablag'lari.* Agar davlat hokimiyati organlari — parlament yoki hukumat mamlakat yoki mintaqa miqyosida tashabbusli byudjetlashtirishni joriy etish to'g'risida siyosiy qaror qabul qilsa, ular o'z byudjetlaridan mablag' ajratishlari mumkin. Bu mexanizm ko'plab mamlakatlarda amalda. Masalan, Shimoliy Irlandiyadagi Ijtimoiy investitsiya fondi to'liq davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, Shotlandiyada esa davlat byudjeti mahalliy tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini birgalikda moliyalashtiradi.

2. *Xalqaro moliya institutlari va rivojlanish tashkilotlari.* Masalan, Jahon banki, BMTning ayrim agentliklari va boshqa xalqaro tuzilmalar rivojlanayotgan mamlakatlarda tashabbusli byudjetlashtirish loyihalarini faol tarzda moliyalashtirmoqda.

3. *Aholining mablag'lari.* Tashabbusli byudjetlashtirishning ayrim loyihalarida aholi ham moliyalashtirish jarayoniga bevosita jalb etiladi. Bu holatda mahalliy rivojlantirish tashabbuslari aholining birgalikdagi ishtiroki orqali amalga oshiriladi.

4. *Aralash moliyalashtirish manbalari.* Xalqaro tashkilotlar, milliy yoki mahalliy byudjet mablag'lari va aholi mablag'lari birgalikda jalb etiladigan mexanizmlar ham mavjud.

Tashabbusli byudjetlashtirish uchun ajratiladigan moliyaviy resurslar odatda ijtimoiy o'zgarishlar uchun muhim hisoblangan loyihalarni amalga oshirishga yetarli

miqdorda bo‘ladi. Odatda bu byudjetning 0,5–2 foizini tashkil etadi. Katta shaharlar uchun, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, bu juda sezilarli ko‘rsatkichdir.

Masalan, Portugaliyaning Lissabon shahrida byudjetning 5 foizdan ortig‘i, Ispaniyaning Sevilya shahrida esa kapital xarajatlarga ajratilgan mablag‘larning 50 foizigacha tashabbusli byudjet loyihalariga yo‘naltiriladi.

Bugungi kunda, 30 yillik muvaffaqiyatli amaliyotdan so‘ng, Porto-Alegre fuqarolari shahar byudjetining 20 foizini taqsimlashda ishtirok etmoqda. Byudjet mablag‘lari tumanlar o‘rtasida oldindan belgilangan mezonlar asosida taqsimlanadi.

Shuningdek, O‘zbekistonda ham Iqtisodiyot va moliya vazirligi keng jamoatchilikni xabardor qilgan holda tashabbusli byudjet mavsumlarini o‘tkazish muddatlariga aniqlik kiritish huquqiga ega (1-jadval).

**1-jadval.**

**Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazilishi bo‘yicha kalendar reja<sup>1</sup>**  
**Tashabbusli byudjet jarayonlari taqvim (lotin yozuvi)**

Mavsum	Tumanlar (shaharlar) byudjetlarining tasdiqlangan umumiy byudjetining kamida 5 foiz qismini “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga teng ulushda o‘tkazish	Fuqarolar tomonidan loyihalarni shakllantirish va taklif qilish	Ishchi komissiya tomonidan loyihalarni tanlash	Loyihalarga ovoz berish
1	Yanvar	1–20 fevral	21 fevraldan 10 martgacha	11–31 mart
2	May	1–20 iyun	21 iyundan 10 iyulgacha	11–31 iyul

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining, shuningdek tuman (shahar)ning qo‘shimcha daromadlari bo‘yicha mablag‘lar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi qarori qabul qilingandan keyin uch ish kuni ichida o‘tkaziladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi yillarda mamlakatimizda respublika va hududlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda mahalliy hokimiyatlarni moliyaviy mustaqil subyekt sifatida shakllantirish, byudjet ijrosida respublikaga bog‘liqlikni kamaytirish, hududlarni rivojlantirish dasturlarini barqaror moliyalashtirish hamda mahalliy byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishda mas‘uliyatni oshirishga alohida urg‘u berilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, bugungi kunda yurtimizda tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida moliyalashtirish manbasi sifatida faqat byudjet mablag‘lari belgilangan. Rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirganimiz bois, bu holat boshqa davlatlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkich ekanini ko‘rish mumkin.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi (Byudjetnoma nashri)

Tashabbusli byudjetlashtirishning dastlabki bosqichlarida faqat byudjet mablag‘lari hisobidan tegishli loyihalarning moliyalashtirilishi fuqarolar orasida tizimga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, bu jarayon kelgusida ularning faol ishtirokini ta‘minlash uchun muhim zamin yaratadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### **FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Нурмухамедова Б.И. Давлат бюджети. Дарслик. – Т.: “ИҚТИСОД МОЛИЯ”, 2018. –630 б.
2. О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qarori, 2024-yil 30-yanvar KQ-666-IV-son <https://lex.uz/docs/-6790170>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 22-сентябрдаги ПҚ–5250-сон “«Очиқ бюджет» ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган тадбирларни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорининг 2-илоvasи <https://lex.uz/docs/5651405>
4. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва Молия вазирлиги (Бюджетнома нашри)
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 25-октябрдаги ПҚ – 409-сон “Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. <https://lex.uz/docs/6251478>



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**